

KO`HNA BUXORO VA SAMARQAND FAQIHLARI

Akbar Allamov

BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası katta o`qituvchisi.

Rohila Rajabova

“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o`qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11243539>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O`rta Osiyo, jumladan, Buxoroi Sharif va Samarqand hududida hanafiya mazhabining buyuk vakillari sifatida tan olinib, o`z ilmiy faoliyatlari bilan, ya`ni fiqh ilmidan kelajak avlodlar uchun bebaho va umrboqiy meros qoldirib ketgan mashhur faqihlardan ayrimlari haqida ma`lumot berib o`tilgan.

BUXORO FAQIHLARI

Abuhafs Kabiyr al-Buxoriy. Bu zoti sharif 150 hijriy(768 milodiy)yili tug`ilib,216 hijriy(832 milodiy) va vafot etgan.

Abuhafs Kabiyr Ahmad ibn Hafs al-Buxoriy Bag`dodga borib, u yerda imom Muhammad bilan uchrashadi va undan dars ola boshlaydi. Hanafiy mazhabi fiqhini o`zlashtirib, boshqa diniy ishlarda kamol darajasiga erishgandan keyin ona shahri Buxoroga qaytib keladi. Bu yerda u bir necha masjid va madrasalar ko`rib, tolibi ilmlarga dars berib, odamlarga paydo bo`lgan turli savollarga va masalalarga javoblarini aytib beradi.

Abuhafs, hanafiy ta`limotlarini birinchi bo`lib Movarounnahrda olib keldi. Uning qo`lida ko`pgina faqihlar va olimlar yetishib chiqdi. Hatto, tarixchilarning ta`kidlashicha, Buxoroda ilmni topishiga sababchi bo`lgan zot ham aynan Abuhafs Kabiyr edi.

Abuhafs Kabiyr hanafiy mazhabi fiqhining Movarounnahrda tarqalishiga jonbozlik ko`rsatgan bo`lsa, uning oilasi xususan, o`g`li Abdulloning bu borada xizmati benihoya buyuk bo`lgan. Shuning uchun ham uni Abuhafs Sag`iyr ya`ni kichik Abuhafs deb atashgan. Uning shuhrati butun Buxoroga, qolaversa, butun islom olamiga tarqaladi. Hatto, arab diyori olimlari biror masalaning javobini topishda qiynalib qolishsa Buxoroga Abuhafs Kabiyrning oldiga bir kishini yuborib, o`sha masalaning yechishini bilib olishar ekan.

Narshaxiyning aytishicha hojilar karvoni ketayotganida, karvondan bir kishi Abuhafsning yoniga kelib, undan masala (maslahat) so`rashgan ekan. Abuhafs hayratlanib: “Ozing –ku Iroqdan kelayapsan, nima uchun Iroq olimlaridan so`ramading?”-deb so`rasa, u kishi esa: “Bu masalada Iroq olimlari bilan munozara qildim, va lekin ular javob bera olmadilar va menga Buxoroga borib, bu masalani Abuhafsdan yoki farzandidan so`rasin, ular senga bu masalaning javobini aytishadi deyishdi”-deb javob beradi.

Olimlar uning ilmu fazlini baholab uni “Muallimi Islom” ya`ni islom dining muallimi, uning sharofati bilan Buxoroni “Qubbatul Islom” ya`ni islom dini gumbazi va u kishi yashaydigan mahalla darvozasini “Haqroz” ,ya`ni haq yo`l deb atashgan ekan.

Abuzayd Dabusiyy.

Buxoro bilan Samarqand oraliq`ida joylashgan, hozirda Samarqand viloyatiga tegishli “Dabusiya” qishlog`ida (o`tmishda shahar bo`lgan)tug`ilib o`sgan, “Quzotisab`a”(yeti mashhur qozi) dan biri bo`lmish Abuzayd Ubaydullo (ba`zi manbalarda Abdullo) ibn Umar ibn Iso ad-Dabusiyy islom huquqshunosligi bo`yicha “Ilmul-xilof” deb atalgan ya`ni fanning asoschisi edi. U ahli sunna mazhablari orasidagi ixtiloflarni tartibga solib, ilmiy uslubda o`rganish qoidalarini yaratib bergan va ko`p ilmiy asarlar yozgan. Ulardan “Kitobul –asror fil-usul val-furu”, “al-

Amadul -aqso", usulul - fiqh bo'yicha "Al-Anvor" kitobi mashhur bo'lib, Mustafó ibn Muhammad Qaddoniy Damashqiy muqaddimasi bilan Misrda nashr etigan.

Usulul -fiqh bo'yicha u yozgan "Taqvimul - adilla" kitobni Faxrul- islom Bazbaviy sharhlagan. Ibn Xaldun ta'kidlashicha, Dabusiyning usulul- fiqh bo'yicha yozgan kitobi bu sohada yozilgan asarlarining eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Dabusiy "At-Ta'liqa" nomli kitobni ham ilmu xilof bo'yicha yozgan.

Zahabiyning yozishicha, Dabusiy 430 hijriy yilda vafot etgan va "Taboaqotul - hanafiya" da yozilishicha, Dabusiya da To'qqiz qozi (yoki Yetti qozi) maqbarasida dafn etilgan.

Rivoyatlarga ko'ra, Dabusiy bir faqih bilan munozara qiladigan chog'da, Dalil keltirganda, faqih unga qarab jilmayib kular ekan. Dabusiy esa ushbu munosabat bilan quyidagi she'rni yozgan ekan. Uning tarjimasí: "Menga nima bo'ldiki, unga dalil keltirsamu, meni kulgu bilan kutib oladi. Agar kishining kulgusi uning faqihligidan dalolat beradigan bo'lsaydi, sahrodagi Xirs(ayiq) eng yaxshi faqih bo'lgan bo'lardi".

Shamsul- ayma Halvoniy (Halvoiy). Alloma 448 yoki 449 yili Kesh shahrida dunyodan o'tib (tug'ilgani ma'lum emas) Buxoroga keltirib dafn etilgan. Shamsul - ayma Halvoniy (yoki al-Halvoiy) fiqh ilmini Husayn ibn Ali Nasafiydan o'rgangan.

Uning ilmiy maqomi yuksak bo'lib, mashhur mujtahidlardan hisoblangan. Mashhur va katta hajmli asari "Al-Mabsud" bo'lib, "Kitobun-navodir" ham uning qalamiga mansubdir.

Zahabiyning yozishicha, buyuk Shamsul- ayma Hanafiyalar peshvosi va diyorida ra'y tarafdorlarining raisi edi. Undan Shamsul-ayma Saraxsiy, Faxrul-islom Bazdaviy, ukase Sabrul-islom Abul-Nasr, Muhammad Zaranjiy kabilar ilm o'rganganlar.

Zarnujiy degan alloma "Ta'lumul-mutaallim" kitobida yozishicha, uning otasi faqir kishi bo'lib holvapaslik va holva sotish kasbi bilan shug'ullanardi. (Uning "Halvoiy" laqabi shundan bo'lsa kerak).

Sabri shahid. Hisomiddin Sabri shahid Umar ibn Abdulaziz (483-536-hijriy) usul va furu' bo'lishicha Hanafiy mazhabi islomlaridan, Ilmul-xilof va mazhab muammolari bo'yicha qayta salohiyatli olim o'rnida turardi.

Hisomiddin fiqh ilmini o'z otasi Burhoniddin Kabiyrdan o'zlashtirib olib o'z davrining tengsiz, allomasiga aylandi. U mutassil faqihlarga dars o'tib, olimlar bilan bahs-munozarada bo'lardi. Sabri shahidning layoqat ilmiy yutuqlari shu darajaga yetishib bordiki Movarounnahrda ham sulton va ham uning atrofida gilari tomonidan katta izzat va ehtiromga sazovor bo'ldi. Imom hijriy 536 yil Samarqandda yuz bergan. Katvon voqeasida shahid bo'ladi, jasadi Buxoroga keltirilib dafn etiladi.

Alohida ta'kidlab o'tmoq joizki Sabri shahid fiqhiy nazariyalar bo'yicha Burhoniddin Marg'noniyning buyuk ustozlaridan biri bo'lgan. U yozgan asarlaridan "Al-Fatovo as- sug'ro", "al-Fatovo al- Kubro", Xassofning "Adabul qazo" kitobiga, "Al-jomi' as-Sag'iyr" kitobiga yozgan sharhlari mashhur.

Nuriddin Sobuniy. XII asrda Moturidiya maktabining yana bir atoqli vakili Ahmad ibn Mahmud Sobuniy o'z asarlari bilan qayta shuhratning homiysi sifatida e'tirofqa sazovor bo'ldi.

Uning to'liq ismi Ahmad ibn Mahmud ibn Abubakr bo'lib, manbalarda "al- Imomul- ajall" (buyuk imom) "Nurid-din" (din ziyosi), " Nosirul- haq" (haq yordamchisi va as-Sobuniy laqablari bilan shuhrat qozongan. Kuniyasi ayrim manbalarda Abu Muhammad, ba'zilarida Abul-Mahomid shaklida beriladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, uning Sobuniy deb atalishiga sovunsozlik yoki sovun sotish kasbi bilan shug'ullanishi sabab bo'lgan. Nuriddin Sobuniy hijriy 580 yil Safar oyining 16 sida chorshanba kuni (milodiy 1184 yil 30-may) quyosh botish chogida hayotdan ko'z yumib, Buxorodan "Al-Quzotus-Sab'a" ("yeti qozi") maqbarasida dafn etilgan. Uning tug'ilgan yili va joyi haqida aniq ma'lumot bo'lmasa ham, u bilan Faxriddin Roziy orasida bo'lib o'tgan munozaralar yiliga asoslanib, uning tavalludi hijriy VI asr boshlarida Buxoro shaxrida sober bo'lgan, degan fikr bor. U tug'ilgan oila e'tiborli xonadonlardan hisoblanib, Buxoro, shuningdek, Iroq va Hurosonda ilmu fazli bilan e'tibor qozongan.

Olimning ilmiy hayotiga oid ma'lumotlar uning asarlari va bizgacha yetib kelgan ikkita munozarasini o'z ichiga olgan kitobga mujassamdir.

"Tojut – Tarojim" va ayrim boshqa manbalarda u fuqhni "Xorazmlik shamsul aimma Kardariydan o'rganganiga ishora qilinadi. Sobuniy asarlarini nashr etgan. Bakr Tubol o'g'li ham uchta asoslanib manbaga tayanib, uning ustoz Abdulg'afur ibn No'mon (Luqmon) ibn Muhammad shamsul – aimma Kardariy bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Nuriddin Sobuniy Abu Mansur Moturidiy ma'lumoti asosida bir necha ilmiy asarlar yaratgan – ki, ularning asosiylari quyidagilardan iborat;

1" Al- Muntaqo Min ismatil – anbiyo".

2" Al-Kifoya Fil-Hidoya".

3"Kitobul – bidoya fi usulid –din".

Tubol o'g'li ta'kidlashicha, oxirgi kitob muallifning eng mashhur va ko'p ko'chirilgan asaridir. U shunchalik qayta shuhrat va e'tiborga ega bo'lganki, boshqa olimlar Sobuniyni "Sohib – ul – Bidoya", ya'ni "Bidoya sohibi" deb ataganlar.

Ushbu kitob "Al- Kifoya fil – Hidoya"ning qisqartmasi bo'lgani uchun ba'zan "Talxisul – Kifoya" ("Kifoya "ning qisqartmasi") Mulaxxasul – Kifoya va "Muxtasarul Hifoya" nomlari bilan ham atalib kelgan.

Olimning kolom ilmiga oid eng muhim va ixcham asari bo'lmish "Kitobul - bidoya fi usuliddin" (Din asoslari bo'yicha boshlang'ich kitob) tadqiqotchi olim Bakr Tubol o'g'li tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, arabcha tanqidiy matni bilan birga 1976- yilga Istanbulga, 1995- yili esa Anqarada beshinchi marta nashr etilgan.

Muallif ushbu kitobda Abu Mansur Maturidiyni "Imomul - Hudo" (Hidoyat peshvosi), "Raisu ahlis – sunna, ash –Shayhul – imom laqablari bilan zikr etadi.

Kitobga murakkab falsafiy va kalomiy muammolarning sodda iboralar bilan yoritganligi muallif arab tilini nechog'li mukammal bilganligidan dalolat beradi. Ayrim mashhur olimlar uning so'zlari va iboralarini iqtibos qilib, o'z asarlariga kiritganlar. Masalan, Amir Temurning suhbatdoshi, "Al Mutavval" va "Muxtasarul-Ma'oni" kitoblarining muallifi mashhur alloma Sa'duddin Taftazoniy o'zining "Sharhul-aqid" kitobida, Kamoluddin Bayoziy "Ishoratul-murom" ("Ko'zlangan maqsadlarga ishoratlar") kitobida undan iqtibos keltirganlar.

SHAMSUL-AIMMA ZARANJARIY. Bu zoti ulug' hijriy 427-512 yillarda yashab o'tgan iqtidorli olim va hanafiy mazhabi himoyasi bo'yicha zarbulmasalga aylangan imom edi. O'z shahrining aholisi uni "Kichik Abu Hanifa" deb atashardi. U fiqh ilmini Abdulaziz Halvoniydandan o'rganib, undan rivoyat qilgan oxirgi kishi hisoblanadi. Zaranjariy uzoq umr ko'rdi, Hanafiy mazhabi bo'yicha ko'p qirrali ma'lumotga ega bo'lgan bo'lib, fatvo olish uchun har doim unga murojaat qilinardi. U fiqh ilmini tarqatishi, hadislar rivoyat qilish bo'yicha va imlo aytish sohasida katta xizmatlar qilgan. Hijriy 512 yilda Buxoroda vafot etib, Kalobozda dafn etilgan.

SAMARQAND FAQIHLARI.

ABU MANSUR MOTURIDIY. IX-X asrning murakkab sharoitida Samarqandning Moturud qishlog'ida tug'ilib, yuksak mutakallim va mutafakkir, yirik faqih va atoqli olim darajasiga ko'tarilgan. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy (257-333 hijriyda) o'ziga xos kalom maktabiga asos solib, hanafiy mazhabining bayrog'ini baland ko'tardi va uning g'oyaviy poydevorini mustahkamlab, ahli sunna val jamoa e'tiqodini qat'iylik bilan him oya qildi, Mo'tazila, Ismoiliya, Qarmatiya va Boshiniya farqlari tomonidan tarqatilgan aqidaviy tushunchalarning asossizligini isbotlab berdi.

Abu Mansur Moturidiy yaratgan Kalom maktabi o'zining ko'p qirraligi, sohasi kengligi, ilmiyligi, bib'atchilarga qarshi murossasizligi bilan ajralib turadi. U shariat ilmlaridan tashqari hikmat, mantiq va boshqa fanlarni o'zlashtirganligi tufayli, katta ilmiy iqtidor va ma'naviy salohiyat kasb etib, diniy qarashlari falsafiy me'yorlar bilan uyg'unlashgan edi.

Mo'taziliylar, Mo'tazila (arab-ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar) islomdagi ilohiyot oqimlaridan biri bo'lib, ular Qur'onni yaratilgan desalar, Moturidiylar uni qadim, azaliy deb biladilar. Mo'taziliylar iymonning shartlari 3 ta, ya'ni til bilan iqror, dil bilan tasdiq va amal bilan ijro etish, desalar, Moturidiyada iymonning shartlari 2 ta, ya'ni til bilan iqror etish va dil bilan tasdiqlash, amallarning o'rni esa bopshqa deb ta'rif qilinadi. Demak, Moturidiylikning keng yoyilishiga uning mo'tazillik yo'lini tutganligi, aqidaviy masalalarda Qur'on, Hadis va aqlu-idrok, mantiq va haqiqatga eng yaqin turgani sabab bo'ldi. Bu ta'limot rivojlanib, XIII asrdan keyin Movarounnahr hududidan chiqib, musulmon Sharhi mamlakatlariga yoyildi. Islom olamining aksariyati mintaqalarida, Iroq, Suriya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shim.Afrikada bu ta'limot hozir ham o'rta va oliy diniy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'qitib kelinmoqda.

Xullas, Abu Mansur Moturidiy Mo'tazillarga nisbatan kengroq ilmiy dunyoqarash va tushunchalarga ega bo'lganligi sababli, tushunish va ma'rifiy quyidagi uch yo'ldan hosil bo'ladi deb ishonadi:

1. His yoki sezgi a'zolari orqali.
2. Naql va rivoyat orqali.
3. Aql va idrok orqali.

Mazkur uslubga binoan Moturidiy mazhabida har bir aqidaviy masala istidlon (dalillash) va mantiqiy uslub asosida yoritiladi.

Ash'ariy mazhabi arab dunyosi va yaqin Sharqda tarqalgan bo'lsa, Moturidiya Turkiston, Xuroson hududida keng ko'lamda tarqalib, odamlar ongidagi g'oyaviy bo'shliqni to'ldirdi. Samarqand aholisi, uzoq muddatli munozaralar va keskin jadallarda g'alaba qozonib, o'z ilmiy asarlari bilan muxoliflarga qaqshatqich zarba bergan imom Moturidiyni e'zozlab, kamoli ehtirom va samimiyat bilan kutib oldi va u bilan juda faxrlandi. Buyuk imom ko'p sonli ilmiy meros qoldirdi. Uning eng muhim asarlari quyidagilar:

1. "Kitobu ma'xazish shar'" yo "Maoxizush - shar"(shariat manbai yo manbalari).
2. "Kitobul - jadal" (Munozara kitobi).
3. "Ta'vilotul Qur'on" yoki " Ta'vilotu ahlis-sunna" (Qur'on ta'viliga doir kitob, Qur'on tafsiri).
4. Kitobur-rad alal -Qaromita" (Qarmatiylarga raddiya kitobi.) (Qarmatlar- 9 asr oxirida janubiy Iroqda vujudga kelgan Ismoiliylarning asosiy shahobchalaridan biri).
5. "Kitobu bayoni vahmil mo'tazila" (mo'tazila vahm va gumonlarining bayoni)
6. "Risolatut- Tahvid" (Tahvid bo'yicha risolalar)

7. “Kitobul usul”
8. “Kitobul maqolat fi usulid –din” (Din asoslari bo`yicha maqolalar)
9. “Sharhu kitobil fiqhil akbar” (Abu Hanifaning “Al-fiqhul akbar” kitobiga sharh)
10. “Kitobu raddi tahzibil jadal lil- Ka’biy” (Ka’biyning “Tahzibil jadal” kitobiga raddiya)
11. Kitobu raddil – imomali ba’zir –ravofiz” (Ayrim Rofiziy shialar tomonidan imomat masalasi bo`yicha ilgari surilgan g`oyalarga raddiya kitobi)
12. “Kitobu raddil – usulil xamsati li Abu Muhammad al- Bohiliy” (Abu Muhammad Bohiliy tomonidan ishlatilgan beshta usul va qoidaga raddiya kitobi)
13. “Kitobu raddi va`idil- fussoq” (Fosiqlar tomonidan yo`lga qo`yilgan vaidlarni rad qilishga doir yozilgan kitob).
14. “Kitobu raddi avoilil adilla lil-Ka’biy”(Ka’biyning boshlang`ich dalillarini rad qilishga bag`ishlangan kitob).

Moturidiyning kalom maktabi keying davrlarda ham bid’atchilarga qarshi Movarounnahr xalqining kurash bayrog`iga aylangan. Qoraxoniylar davlati Buxoroda Moturidiy yaratgan aqid maktabini haqiqiy islom va ahli sunna val jamoaning aqidaviy asoslari deb e`lon qilgan edi.

Shunday qilib, Moturidiy kalom va usulul fiqh bo`yicha Hanafiy mazhabining yirik va salohiyatli vakili sifatida o`zidan qoldirgan barhayot asoslari bilan, Hanafiy ta`limoti asosida “Moturidiya” kalom mazhabini yaratdi va fiqh ilmi uslubiyati rivojiga tengsiz hissa qo`shdi. Undan keyin Nasafiylar va Buxorolik Nuriddin Sobuniy olimning (ishini) izdoshlari sifatida, uning yo`lini davom ettirdilar.

ALOUDDIN SAMARQANDIY.

O`rta Osiyoda Hanafiylarning buyuk imomlaridan biri Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vafoti 1145 yil) fiqh ilmini Sadrul-islom Abul-yusr Bazdaviydan o`rganib, o`z davrining buyuk allomasi sifatida tan olingan va hanafiy huquqshunosligi ravnaqiga muhim hissa qo`shgan. U yozgan “Tuhfatul- fuqaho” (“Faqihlar tuhfası”) nomli kitob hanafiy fiqhi bo`yicha katta e`tiborga ega bo`lib, uning ustidan sharhlar yozilgan. U o`z qizi Fotimani yoshligidanoq tarbiyalab, iste`dodli faqih va olim darajasiga yetkazgan edi. Manbalarda yozilishicha, Fotima fatvo berish vakolatiga ega bo`lib, ushbu sohada otasi bilan hamkorlik qilib kelgan. Alouddin Samarqandiyning shogirdi va kuyovi, Qoraxoniylar davrining buyuk faqihi imom Abu bakr ibn Mas`ud al-Kosoni o`z ustozining “ Tuhfatul-Fuqaho” kitobi ustidan “ Babo`us- sanoı` fi tartibish – sharoı” nomli uch jildlik sharh yozib , o`z ustoziga taqdim etgan. Hoji Xalifa rivoyatiga ko`ra, uning sharhi ustoziga manzur bo`lib, o`zining chiroyli qizi Fotimani unga nikohlab bergan. O`shanda xalq ichida “Tuhfa “ kitobini sharhlab qizini oldi” degan so`z yuritilgan.

Alouddin Samarqandiy fiqh ilmidan tashqari kalom ilmi bo`yicha ham Hanafiy mazhabining yirik vakillaridan biri sifatida imom Abu Mansur Moturidiyning izboshi va ta`limotining tarqatuvchisi bo`lgan. Hoji Xalifa yozishicha , u imomning “ Ta`vilot” kitobini sakkiz jildda jamlagan.

FOTIMA BINTU ALOUDDIN.

Abdulhay laknaviy “Al-Favoid”da yozishicha, Fotima otasi Aloviddin Camarqandiyning “Tuxfotulfuqaho” kitobini yoddan bilgan, otasiga fatvo chiqarishda yordam berib, fatvolar har ikkalasining ijozati bilan chiqqan. Abu-bakr Kosoniya turmushga chiqqandan so`ng fatvolar har uchalasining muxri bilan chiqarilgan. Ba`zan eri Abu bakr xatoga yo`l qo`ganda Fotiyma uning xatosini to`g`rilab kelgan. Ayrim manbalarda aytilishicha ,Fotima o`z eri Abu bakr ibn

Mas'ud Kosoniy bilan ba'zi sabablarga ko'ra, bir muddat Halab diyorida istiqomat qilganlar. U erini Halabdan ketishga undagan. Buni eshitgan Nuriddin Mahmud Zankiy Kosoniyni chaqirib, uni qolishga ko'ndiradi. Nimaga ketmoqchi ekanligining sababini so'raganda, u ustozining qiziga xilof ish qila olmasligini aytadi. Keyin Nuriddin Mahmud u bilan maslahatlashib, Fotimaga bir ayolni yuborib uni ko'ndiradi va ular umrlarining oxirigacha Halabda qolib, hanafiy fiqhini tarqatish bilan shug'ullanadilar.

Kosoniy 578 hijriy yil rajab oyining uchinchi kuni vafot etib, xotini Alouddin qizi Fotima yonida zohiri "Zohiri Halab" da maqomi Ibrohim Xalilning ichida dafn etilgan. Shunday qilib, o'zbek qizi Fotima islom dunyosida o'z buyuk iste'dodi va fiqh ilmi bo'yicha yuksak salohiyati bilan mumtoz va misli kam bo'lgan faqih ayol sifatida dong taratgan.

ABULLAYS SAMARQANDIY.

Bu zoti aziz Samarqandning zabardast olimlaridan biri edi. U "Al- Faqih" laqabi bilan ham mashhur bo'lgan. Bu laqabni olishi to'g'risida ushbu hodisa keltiriladi: " Abullays Samarqandiy " Tanbeh ul-g'ofilin" kitobini yozib bo'lganidan keyin o'z kitobini olib Payg'ambarimizning ravzalari – qabrlariga kelib shu yerda jo'nab qoladi. Kechasi tushida Payg'ambarimiz unga o'sha kitobni ko'rsatib " Kitobingni olgin, eh-faqih!" deb marhamat qilayotganini ko'radi. Mana shundan keyin Abullays Samarqandiy ushbu laqabni tabarruk deb yurar ekan. U shuningdek, " IMOM UL-HUDO" laqabi bilan ham mashhur bo'lgan. Bu laqab bilan Abu Mansur Moturidiy ham tanilgan edi.

Uning tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumot yo'q. Vafotin ing tarixi haqida ham ko'rsatilgan sanalar faraqlidir.

Abullays Samarqandiy birinchidan o'z otasi Muhammad ibn Ibrohimdan dars olgan. U o'z davrida yetuk zabardast alloma, faqih muhaddis, mufassar, zohid kishi bo'lgan. U yozgan kitoblar uning turli ilmlarda mutaxassisligini va shu ilmlarda yuqori darajalarga erishganligini ko'rsatadi.

U tafsir ilmi bo'yicha " Baxrul-ulum" kitobini , fiqh ilmi bo'yicha "Xizonat ul-fiqh", "Uyunul-Masoil" , "al-Muqaddima", "an-Navozil" , "Ta'sisun-nazoir" , "al-Mas'ud" , "an- Navodirul-fiqhiyya", "Sharhul-jome' al- kabiyr", "Sharhul-jome' as-Sag'iyr" , "Muqaddima fi ba'zil-kaboir vas- sag'oir", "Fatovo" asarlarini, zohidlik va taqvo borasida, "Tanbih ul- G'ofilin", "Bo'stonul-orifin", e'tiqod –kalom ilmi bo'yicha "Usulid-din", "Bayon aqidatil-usul", "Asrorul –vahiv", "Risola fil – ma'rifa val – iymon", "Risola fil- hukm", "Quvvatun- nafs fi ma'rifatil- xams" kitoblarini yozgan.

References:

1. Hamidjon Homidiy. Ko'hna sharq darg'alari. "Sharq" nashriyot-matbaa kontserni. Bosh tahririyati. Toshkent. 1999 y.
2. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. Toshkent, "Sharq". 2005 y.
3. G'ulomxon G'ofurov. Sharq javohirlari. Toshkent: "Ma'naviyat". 2000 y.
4. Islom. Ensiklopediya." O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat milliy naahriyoti, 2004 y.
5. I. Abdullayev. H. Hikmatullayev. Samarqandlik olimlar. Toshkent: "Fan", 1969 y.
6. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. "Navro'z" nashriyoti. Toshkent: 2015 y.